HOZIRGI DAVR YOSHLARINING KOMMUNIKATIV RIVOJLANISHI

Kurbanova Gullola Baxramovna
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti v.b.
Ahmatov Nodirbek Musa o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda keltirilgan fikrlarning qisqacha mazmuni shundan iboratki, rivojlanish asri jadallashayotgan davrda yoshlar xulq-atvori, tafakkurining ulardan avvalgi avloddagi tafakkurdan farqi va shu sabab yuzaga kelayotgan muammolar haqida. Maqolada yoshlarning xulq-atvori va ichki kechinmalari yorotiladi va hozirgi jamiyatga qanchalik mos ekani ochiqlanadi

Kalit so‘zlar: evolutsiya, mavhumlik, dolzarblik, streotip.

Abstract: The summary of the ideas presented in this article is that the behavior and thinking of young people are different from the thinking of the previous generation in the age of development and the problems that arise because of this. The article highlights the behavior and inner experiences of young people and reveals how they fit into today's society.

Key words: evolution, abstraction, actuality, stereotype.

Boshlashdan avval bir narsaga kelishib olishimiz kerakki, bu maqolani o‘qiyotganingizda o‘zingizga ma’lum streotiplar haqida bir muddat unuting va muallifning gaplarini salbiy tomonlama ham ijobiy tomonlama ham baholang. Gap yoshlarga yon bosish va kattalar siyosatiga qarshi chiqish haqida emas. Gap yetishib chiqayotgan kelajak egalarining jamiyatga tasiri haqida. Iltimos dunyoga real ko‘z bilan boqing va ertangi kunimiz haqida o‘ylang. Unutmang tarix hulosa chiqarish uchun kerak qaytarish uchun emas.

Avval bir narsani tushunib olsak:"Yoshlar bebosh bo‘lib ketgan","Hozirgi yoshlar axloqsiz bo‘lib ketgan" – bu iboralarning muallifi bormi? Biz aniq muallifi yo‘q bo‘lgan gaplarni undalik

hayotimizga kirgizdik.Bular o‘zi nima? Ibora? Maqol? Bu streotip. Streotip bu sodda tilda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani muhum bo‘lmagan asosiysi ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan kundalik tushuncha. Tushunishimiz kerakki X asrda axloqsiz bolalar bo‘lgan. Tasavvur qilishingizni osonlashtirsam bu davrda telefon tugul sharikli ruchka ham bo‘lmagan.

Demak, bu asossiz gap. Yoshlarni hammasi ham axloqsiz emas. Avval aniqlashtirib olsak axloqsizlik yosh tanmaydi. Shunchaki yoshlar ichida axloqiy tarbiyaga muhtoj qatlam bor. Balki yoshlarimiz o‘rtasidagi axloqsizlk hozirga kelib namoyishkoronalik jihatidan kuchaygandir ammo bu yoshlar qatlami haqida emas.Keling qaltis savol beraman yoshlar axloqsizlikni kimdan o‘rganyapti? Javob berishingiz mumkinki internet deb. Aytingchi unda internetdagi tengdoshlari o‘rtasida axloqsiz harakatlarni yoyishni birinchi bo‘lib boshlagan tengdoshimiz kimdan o‘rgangan ekan.

O‘tkir Hoshimovning "Ikki jara ikki besh" asarida adib men aytayotgan narsaga shama qilgan. Miyyasida beg‘uborlikdan boshqa his bo‘lmagan Qo‘shoqboy mahalla raisining harakatlari natijasida isyonkorlik tuyg‘usini his qildi.

Yoshlar masalasi juda dolzarb. Biz qachondir qariymiz va biz olib borgan siyosat qulashi tabiiy, so‘ng esa bizdan keyingilar siyosatiga bosh egishga majbur bo‘lamiz. Biz yoshlarni talablar, jazolar, nazorat ostida ko‘p ushlab turmayapmizmikan? Biz o‘zga asos bormi? Yoshlar o‘zlaridan avvalgi avlod xatosi uchun javobgar emas, ular shunchaki xulosa chiqarishi kerak. Gabriel Garsia Markesning "Yolg‘izlikning yuz yili" asarini eslasak: zamon hech qachon bizni kutib turmaydi, biz yoshlarni to‘g‘ri fikrlashga undamasak(e'tibor bering majbur qilmasak emas) insoniyat boshidan yana bir evolutsiyani o‘tqizadi.

Mummo shunchalik chigalki savollarni hammsasi bir biriga bog‘liq. Telefondan voz kecha olmasligimizni tushunishimiz kerak. Biz Hozir kitob o‘qib til organib yana ixtirolar yangiliklar qilamiz va yana qaytamiz. Nima deb o‘ylaysiz X-XV asrdagi mutaffakirlarmizning tarbiyaviy qarashlari bizga to‘g‘ri keladimi. Men ulardan voz kechish kerak emasman(agar asabiylashayotgan bo‘lsez maqolani boshidagi jumlani eslang) shunchaki balki yangi asr asarlarini ham darslikka qo‘shish kerakdir demoqchiman. Yoki siz XV asrga qaytmoqchimisiz. Men hech qaysi davlatni misol keltirmoqchi emasman. Shunchaki fikrlashga chaqirmoqchiman.

Yoshlarni hammasi ham siz kattalar tug‘ilgan davrda axloqli tarbiyali bo‘lmagan va hozir ham bunday emas. Agar sizda "bizni paytta ko‘p emas edi" degan savol bo‘lsa men sizga ilmiy savol beraman. Siz tug‘ilgan paytta yoshlar ko‘p bo‘lmagandir balki yoki sanab chiqdimi kimdir. Muallif hali 19 yoshda u ham yosh. Ammo siz kattalarni tilizda sizga shunday savol beryapman. Nima deb o‘ylaysiz yoshlar sizlarni tobora keng yoyilayotgan dashnomlariz ostida tez qarimayaptimikan. Biz yoshlar haqida gapirar ekanmiz aniq chorani avval o‘ylab topishimiz kerak. Savolni javobi ma'lum bo‘lmasa uni oshkor etish har doim ham to‘g‘ri emas.

"Biz kattalarni ko‘rsak hurmatini joyiga qo‘yardik hozirgilar bunday emas" bu gapni ham eshitganmiz. Bilishimiz kerakki demak o‘sha kattalar rosttan hurmatga loyiq bo‘lgan. Bu gapni ishlatayotganlar esa insonlarni g‘iybat qilishga ketayotgan vaqtini kasbiga bag‘ishlasa balki u ham hurmatga loyiq bo‘ladi. To‘g‘ri tushunaylik – hurmat so‘rab olinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gabriel Garsia Markes. "Yolg‘izlikning yuz yili". –T., "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - 2017

2. O‘tkir Hoshimov. "Ikki karra ikki besh". –T., "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. - 2018

3. M.Sharipov, D.Fayzixo‘jayeva. Mantiq. –T., "Gafur G‘ulom" nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2004